



O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA MILLIY RUHIYATNING AKS ETTIRILISHI: XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SARIQ DEVNI MINIB" ASARI MISOLIDA

Navro'zova Gulrux O'ktamovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti ingliz tili o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8001573>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2023

Accepted: 30th May 2023

Online: 31th May 2023

KEY WORDS

Bolalar adabiyotida badiiy obrazlar, xarakter xususiyatlari, milliy ruhiyat, qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki dunyosi, tuyg'u, obrazlarning psixologik tahlili.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bolalar badiiy adabiyotida obrazlarning psixologik talqini, milliy-ma'naviy ruhiyati, milliy tafakkur tasnifi ifodalangan bo'lib, unda Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari misolida badiiy obrazlarning xarakter xususiyatlari va ichki kechinmalari tahlili aks ettiriladi. Shuningdek, milliy ruhiyatni aks ettiruvchi jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Badiiy adabiyotda yaratilgan mukammal xarakterlar o'quvchi qalbidan joy oladi, kitobxon xotirasidan uzoq muddatgacha o'chmaydi. Shu sababli ham, bunday qahramonlar katta-kichik uchun baravar sevimli bo'ladi. Biz mulohaza yuritayotgan masala ham katta-kichik uchun birday qadri bo'lgan qahramonlar, ya'ni, bolalar adabiyotidagi bizga tanish bo'lgan obrazlar, xarakterlar xususidadir.

Bunga misol qilib, Xudoyberdi To'xtaboyev yaratgan qahramonlarni keltirdik. Muallifning "Sariq devni minib" romani bola xarakterini mukammal darajada tasvirlab bergan san'at asaridir. Unda qahramon ruhiy olami ba'zan jiddiy, ba'zan esa komizm bilan yo'g'rilgan holda go'zal tasvirlangan.¹

Adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulov "Sariq devni minib" asarida roviy masalasiga to'xtalib, qahramon va roviy birligi, yozuvchining hikoya yo'sini va uslubi haqida batafsil fikr yuritadi.

Haqiqatdan ham asarning ushbu yo'sini yozuvchining o'ziga xos uslubini namoyon etadi. Bu uslubdan qahramonning "kim"ligi bora-bora aniqlashadi. Qahramonning ruhiyat qirralari yozuvchi uslub mahorati natijasida sayqal topgan.

Asarda yana bir qirra komizm yetakchiligi mavjud. Komizm – komediya so'zi o'zagiga aloqador bo'lib, yunoncha comikos – kulgili va ode – qo'shiq ma'nolarini anglatadi.

Komediyaning mohiyati – komik konfliktga bog'liq bo'lib, unda "hayot o'z-o'zini inkor qiladi", ya'ni, aslida, xunuk, zararli, razil va nopok xulqli inson (mazmun) o'zini yaxshi, ilg'or, pok, odamiy qilib ko'rsatsa (shakl) yoki buning aksicha holatda bo'lsa, kulgi keltirib chiqaradi,

¹ Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1982 yil.



degan fikrni bildiradi Belinskiy. Demak, komizm – hayotga, voqelikka kulgi aralash munosabat, inson ko'nglining kulgi yo'li bilan poklanishidir. Bu borada adabiyotshunos Suvon Melining “Komik katarsis” nomli maqolasida batafsil fikr yuritilgan. Adabiyotshunos “komik katarsis” tushunchasi orqali inson ruhiyati nozikligini ochib beradi. Qahramon kulgili vaziyatlarga tushib qolar ekan, o'zi ham kuladi, kulish barobarida ko'ngli g'uborlardan tozarib boradi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning bolalarga bag'ishlangan barcha asarlarida yozuvchi bolalar olamiga chuqur kirib boradi. Buning sababi, yozuvchi bola ruhiyatini yaxshi bilganidir. Bu haqda yozuvchining o'zi shunday deydi: “Ruhi – dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intilayotgan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qalay bo'larkan, deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim.

Bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim. Sobiq “Yosh gvardiya” nashriyoti, “Gulxan”, “Yosh kuch” jurnallari, “Iste'dod” jamg'armalarida rahbar lavozimlarida ishlab, bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor berdim”.²

Yozuvchining mahorati, uzoq davom etgan izlanishlari, bola ruhiyatini yaxshi o'rgangani, bolalarga bo'lgan muhabbati – bularning barchasi uning g'aroyib qahramonlarida bo'y ko'rsatdi. Bu qahramonlarni bugungi kunda bolalar xarakterining namunasi sifatida bemalol ko'rsatish mumkin.

Biz e'tibor qaratgan masala bola ichki dunyosi, ruhiyati, kechinmalari – uning xarakteri tasviri xususida. Adib yaratgan obrazlarda bolalar xarakteri nihoyatda betakror ifodalangan. “Sariq devni minib” asari bola xarakterini beg'ubor kulgi orqali yuzaga chiqargan ajoyib asar, deyish mumkin. Bu asar aynan komizm, hayotbaxsh kulgi ustunligi bilan jahon adabiyotining yirik vakillari e'tirofiga sazovor bo'lgan. Jumladan, bolalar adabiyoti masalariga bag'ishlangan bir anjumanda mashhur italyan bolalar yozuvchisi Janni Rodari “Sariq devni minib” romani haqida to'xtalib, bu asar menga o'zining boy fantaziyasi, hayotbaxsh yumori bilan ma'qul bo'ldi, degan edi. Xuddi shu asar nemis tilida chiqqanida turkshunos olim Doras Shuls adibga o'zbek tilida maktub yo'llab, roman quvnoq o'zbekona kulgisi bilan nemis kitobxoniga ma'qul tushganligini ta'kidlaydi. Taniqli bolalar adibi Albert Lixanov “Besh bolali yigitcha”ning Moskvadagi nashriga yozgan so'z boshi maqolasida asardagi g'amgin ohangga jo'r bo'lib, uni nurlantirib turgan hayotbaxsh yumorga katta baho beradi. Yozuvchining o'zi bu haqda: “bolalar tabiatan quvnoq bo'ladi, uning murg'ak qalbi erkalashni, erkalanishni hamisha talab qilib turadi... asar boshdan-oyoq fojia tasviridan iborat bo'lganida, mening yosh kitobxonlarim qalbiga iztirob sig'may, zerikib qolishi, kitobni tashlab qo'yishi mumkin edi... bolalar qalbini rom qilib olaman, degan yozuvchi bola qalbining doimiy yo'ldoshi va ehtiyoji bo'lgan quvnoqlikdan, hayotbaxsh yumordan, odam bolasining butun vujudiga orom beradigan ana shu noyob ruhiy holatdan uzoq ketmasligi kerak...”, deydi.

Qahramonlar komizm ruhida yaratilar ekan, bu kulgi kitobxon qalbiga o'z beg'uborligi, quvnoqligi bilan kirib boradi. O'quvchi bu tasvirlardan yengilgina kulib qo'yadi va bolaning bolalarga xos kulgisini his etadi. Qahramon komizmi ma'lum sharoit asosida yuzaga keladi.

² . Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy. Manba: Go'zallik izlab. –T.:G.,G.,ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1985



Bu masalani yoritishda ham asarlardan ayrim parchalar kiritamiz. Hoshimjom – injener. O‘ziga topshirilgan vazifani ado etdi, ya’ni, bino qurilishini oxirigacha bitkazdi. O‘z ishidan xursand, maqtovlar-u olqishlar yog‘ilishini kutib turibdi. Biroq, to‘satdan kutilmagan voqea sodir bo‘ldi. Bunday bo‘lishi yetti uxlab tushiga ham kirmagan edi. O‘z nomiga maqtovlar atalishini kutib turgan bola birdan atrofdagilarning: “uyning kanalizatsiyasi qani?”, “rasvo qilibsiz-ku!”, “xonalarining hammasi qiyshiq”, “... eshik ochilmagan”, “Bu uy bo‘lmabdi, ko‘chaga ko‘prik bo‘libdi”, degan vahimali gaplarini eshitadi.

“Yana gurillab kulgi ko‘tarildi. Ammo, bu galgi kulgida na quvonch, na shodlik, na taajjub bor edi. Unda olam – olam g‘azab, olam – olam nafrat mujassam. Hammasi kulyapti. Shu g‘azab, shu nafratning hammasi mening boshimga yog‘ilyapti... Bir nafas avval o‘zimda yo‘q shod edim, xursand edim, quvonchlarim bir dunyo edi... Endi-chi? Boshim egilgan, ko‘zimdan miltillab yosh oqyapti, yig‘layapman.

– Jinoyatchi! – dedi vakillardan biri.

– Brakchi! – dedi boshqasi qo‘lini bigiz qilib.

– Qamash kerak! – deb o‘shqirdi gorispolkom vakili. – Ushlang uni, o‘rtoq Shermatov.

Sehri qalpoqchamni sekin boshimga kiydimu ko‘zdan g‘oyib bo‘la qoldim. Qayoqqa boraman endi, qaysi dargohdan boshpana axtaraman?”³

Sirdan qaraganda, kulgili ko‘ringan bu vaziyat, aslida, o‘z zimmiga jamiyatdagi bitta fojiani yashirgan. Bu fojia shundaki, o‘z kasbidan bexabar “mutaxassis”lar, qo‘lidan kelmaydigan ish bilan ham tap tortmay shug‘ullanaveradigan “chalamulla”lar mas‘uliyatli kasblar bilan mashg‘ul. Vaholanki, o‘z ishining mutaxassisi bo‘lmagan, kasbiniki bilmaydigan kadrning mas‘uliyatni to‘la his qilishi uncha ishonarli hodisa emas. Asar mazmunidan ma‘lumki, Hoshimjonning hali maktab o‘quvchisi bo‘laturib (qalpoqchasi yordamida), injener bo‘lib ishlashi, albatta, g‘ayritabiiy hol. Yozuvchi aynan o‘sha “g‘ayritabiiy hol” orqali jamiyatni inqirozga yetaklovchi fojiani ko‘rsatib bergan. Demak, Xudoyberdi To‘xtaboyev bola kulgisiga katta muammolarni yuklay bilgan.

Adib asarlarining eng ko‘zga ko‘ringan xususiyatlaridan biri – ularda milliy psixologiyaning aks etishi. Yozuvchi qahramonlarida milliy ruh, o‘zbekona urf-odatlar, o‘zbekona xarakter qirralari namoyon bo‘lib turadi.

“Sariq devni minib” romanida hayotbaxsh ruh, hazil-mutoyiba kayfiyati, jonli, harakatchan qahramonlar faoliyati yetakchilik qiladi. Ular bolalar didiga, ruhiy-ma‘naviy ehtiyojiga nihoyatda mos kelgan.

“Shirin qovunlar mamlakati...” asarida bu holat o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

“To‘g‘ri, men o‘sha yili oltinchi sinfda qolib ketganman, lekin yomon o‘qiganim uchun emas, yo‘q, zinhor bunday deb o‘ylamang. O‘sha yili sizga ochig‘ini aytsam, butun maktabimiz bo‘yicha “to‘rt” va “besh” baholar zapasi kamayib qolgan ekan. Shuning uchun muallimlar menga nuqul yo “uch”, yo “ikki” qo‘yaverishgan. O‘qituvchilar: “Akromjon, sen o‘zi ajoyib bolasanu lekin, baribir, ikki qo‘yishga to‘g‘ri keladi-da”, – deb bir necha bor uzr so‘rashgan”.⁴Parchadan bir narsani aniq bilish mumkin: o‘quvchi bolaning maktabga, bilim

³ Xudoyberdi To‘xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. “Yosh gvardiya” nashriyoti. 1982 yil. 73-74b.

⁴ Xudoyberdi To‘xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi. Toshkent. “Cho‘lpon” nashriyoti. 1991 yil. 5-bet.



olishga bo'lgan ozroq e'tiborsizligi. To'g'ri, bunday holat hozirgi kun bolalari orasida ham "ommalashib" ketgan. Buning sababini zamon texnikasi yutuqlari, informatsiya oqimi shiddatining kuchliligi bilan izohlaymiz. Ammo, har qanday zamonda ham, har qanday sharoitda ham bola dastlabki bilimni maktabdan oladi. Maktabdan e'tiborsizlikka o'rgangan boladan, ulg'aygach, juda katta umidlar kutish to'g'ri emas. Yozuvchi xuddi shu masalaga g'oyat noziklik bilan ishora qiladi.

Folklorshunos olim Omonulla Madayev "Shirin qovunlar mamlakati"dagi achchiq haqiqat" nomli maqolasida jamiyatdagi muammolar bu asarda kulgi ostida berib borilganligini aytib o'tadi. Komizm, hayotga kulgi aralash munosabat doimo san'atning muhim unsurlaridan biri bo'lib kelgan. Yozuvchi hayotda nimani kulgi ob'yekti qilib olishi uning ideali bilan bog'liq. Ideal qanchalar yuksak bo'lsa, uning kulgi ob'yekti shunchalik keng doirani qamrab oladi. Biz adibning asarlarida ana shunday keng ma'noga ega kulgini kuzatamiz.

Umuman olganda, o'zbek bolalar adabiyotida bolalar xarakteri yuqoridagi kabi belgi – xususiyatlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

References:

1. Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1982 yil.
2. Sharafiddinov O. Botirlarning umri boqiy. Manba: Go,,zallik izlab. –T.:G,,G,,ulom nomidagi adabiyot va san"at nashryoti, 1985
3. Xudoyberdi To'xtaboyev. Sariq devni minib. Toshkent. "Yosh gvardiya" nashriyoti. 1982 yil. 73-74b.
4. Xudoyberdi To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi. Toshkent. "Cho'lpon" nashriyoti. 1991 yil. 5-bet.
5. Rajabov, A., & Jalilova, L. J. (2021). Peculiarities of modern uzbek childrens literature (on the example of Khudoiberdi Tokhtaboyevs works). *Scientific reports of Bukhara State University*, 5(2), 169-177.
6. Jalilova Senior Teacher, Lola. "NATIONAL SPECIFICITY OF AMERICAN SATIRICAL SHORT STORIES." *Philology Matters* 2020.2 (2020): 40-50.
7. Rajabov, A., & Jalilova, L. (2021). The peculiarities of psychological characteristics of the main hero in J. Rowlings heptalogy of Harry Potter. *International Engineering Journal for Research & Development*, 1-5.
8. Rajabov Akham Uktamovich, & Jalilova Lola Jalilovna. (2022). THE ROLE OF PSYCHOLOGISM IN THE DEVELOPMENT OF A LITERARY GENRE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &*
9. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent, –Turon zamin ziyo, 2015
10. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
11. Suyumov A., Kichkintoylar adabiyoti, T., 1962; Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori, T., 1975; Bolalar adabiyoti va zamonaviylik, T., 1981; Safarov O., O'zbek bolalar poetik folklori,



T., 1985; O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon, T., 1989; Barakayev R., Jonajonim, she'riyat, T., 1997.

12. Rahmatilla Barakayev, Kavsar Turdiyeva.
13. O'zbek bolalar adabiyoti antalogiyasi. Ikki jildlik. 1-2-jild.T:O'qituvchi, 2006.
14. George Yule. The Study of Language. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS. 2010.
15. www.ziyonet.uz
16. www.tdpu.uz
17. www.edu.uz
18. www.det.lit.ru